



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2025- yil  
yanvar

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2025- yil yanvar)

64,6



**Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da**

971,3




**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda**

74,0




**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da**



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra)

2025- y.

64,6 %

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

56,9 %

2021- y.

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar)

67,1 %


2025- y.

Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.

56,5 %

## Soni, birlikda.



## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

57,4 % (1- fevral holatiga ko'ra)



2025- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.



48,9 %


Soni, birlikda




Soni, birlikda

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar)

2025




2024




2023



2022



2021



2025- y.

65,0 %




Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da

53,8 %




2021- y.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> Grafikda va keyingi o'rinlarda 2021-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2024- yil yanvar oyi hajmi va 2025- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Jizzax viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>1 478,8</b>	<b>100,0</b>	<b>110,5</b>
Jizzax sh.	508,6	34,4	107,6
tumanlar:			
Arnasoy	17,3	1,2	112,5
Baxmal	72,4	4,9	117,4
G'allaorol	77,9	5,3	110,9
Sharof Rashidov	131,5	8,9	113,1
Do'stlik	25,3	1,7	105,4
Zomin	77,1	5,2	112,1
Zarbdor	31,5	2,1	110,7
Mirzacho'l	21,2	1,4	103,0
Zafarobod	16,0	1,1	109,0
Paxtakor	35,6	2,4	106,0
Forish	43,8	3,0	111,8
Yangiobod	6,9	0,4	122,0

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)

■ Hajmi, ming so'mda  
● O'sishi, kamayishi % da




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2025- yil yanvar)

■ Hajmi, ming so'mda  
◆ O'sish sur'ati, % da




## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **74,0** foizni, shu jumladan, **44,8** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2025- yil yanvar)






Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, xizmatlar sohasiga tegishli G dan S gacha bo'limlarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>1 478,8</b>	<b>100,0</b>	<b>110,5</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	62,7	4,2	114,6
Moliyaviy xizmatlar	240,8	16,3	107,8
Transport xizmatlari	186,6	12,6	110,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	179,5	12,1	109,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	325,0	22,0	111,5
Savdo xizmatlari	348,7	23,6	113,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	22,7	1,5	103,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	43,4	2,9	104,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,0	2,2	104,7
Ijara xizmatlari	19,2	1,3	105,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	33,3	2,3	104,7
Shaxsiy xizmatlar	37,1	2,5	107,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	16,1	1,1	102,0
Boshqa xizmatlar	111,2	7,5	111,4

## Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>

**2025- yilning yanvar** oyida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **51,5 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2025- yil yanvar)




Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Jizzax shahri	144,7	+17,3
G'allaorol	32,7	+6,9
Sharof Rashidov	30,0	+13,3
Zomin	23,6	+12,2
Baxmal	21,9	+16,6
Forish	12,3	+7,5
Paxtakor	10,5	+11,8
Do'stlik	9,8	+7,6
Zarbdor	9,7	+9,2
Mirzacho'l	6,4	+6,1
Arnasoy	6,3	+9,3
Zafarobod	5,2	+6,0
Yangiobod	2,5	+6,1

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda    ◆ O'sishi, % da

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>



**2025-yilning yanvar oyida** xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **22,0** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **93,5** %.

## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da


## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar)

Hajmi, mlrd so'mda


O'sish sur'ari, % da



## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd so'mda)




## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2025- yil yanvar, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2025- yil yanvarida 93,1** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **67,9** foizni yoki **163,6** mlrd so'mni tashkil etdi. **2024- yil yanvar** oyiga nisbatan Yangiobod tumanida yuqori o'sish qayd etildi **4,3** m.


## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,2** foiz.

Sh.Rashidov tumanida transport xizmatlari hajmi **54,7** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlarining o'sishi **9,0** foiz darajasida qayd etildi.


## Hududlar kesimida transport xizmatlari (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>

2025- yilning yanvar oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **179,5** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,1 %** ni tashkil etdi.



Sharof Rashidov

51,1

+8,6

Jizzax shahri

31,8

+11,0

Forish

15,6

+12,3

Zomin

14,0

+7,5

Baxmal

13,4

+6,6

G'allaorol

12,7

+8,2

Zarbdor

5,4

+5,6

Paxtakor

4,5

+7,1

Do'stlik

4,2

+8,0

Zafarobod

2,2

+8,7

Mirzacho'l .

2,0

+8,2

Arnasoy

1,1

+6,8

Yangiobod

0,9

+4,2

**Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**  
(2025- yil yanvar)



**2024- yil yanvar** oyida yuk avtomobil transporti xizmatlari ulushi **60,6** foizga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yo'lovchilarni xizmatlarining ulushi **39,4** foizni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd so'mda ■ O'sishi, % da

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2025-yilning yanvar** oyidagi ulushi **72,9 %** ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar) <sup>1)</sup>



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2025- yil yanvar)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


◆ O'sishi, % da

## Telekommunikatsiya xizmatlarining dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar)

**2025- yil yanvar** oyi yakunlariga ko'ra telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **45,7** mlrd so'mga yetdi va 2024- yilga nisbatan o'sish **16,9** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙️ O'sishi, % da



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2025- yil yanvar** oyidagi ulushi **62,3** foizni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mln so'mda)

Jizzax shahri	31 748,0
Zomin	1 410,9
Sharof Rashidov	1 136,9
Baxmal	829,0
G'allaorol	755,1
Zarbdor	422,1
Do'stlik	393,9
Paxtakor	392,6
Zafarobod	249,9
Arnasoy	235,6
Forish	228,1
Mirzacho'l	193,1
Yangiobod	36,0




Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Jizzax shahriga to'g'ri keladi. **2025-yilning yanvar** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **31,8** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **73,3** foizini tashkil etdi.

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 17,9 foizini tashkil etadi.


## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2025- yil yanvar)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda    ◆ O'sishi, % da

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida boshqa sog'liqni saqlash xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2025- yil yanvar** oyidagi ulushi **49,2** foizni tashkil etdi. shifoxona muassasalari xizmatlari **44,7** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **6,1** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar)



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar) <sup>1)</sup>



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **84,7** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2025- yil yanvar)




1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

🏠 O'sishi, % da

## Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar)<sup>1)</sup>



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2025- yil yanvar, mln so'mda)



2024-yilning yanvar oyida ijara xizmatlari hajmi **19,2** mlrd so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **76,6** foizni tashkil etadi.

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mln so'mda)



**2024- yilning yanvar** oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **16,1** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **83,1** foizni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.